

**Har yili joylashtirish vositalari xodimlarining malakasini oshirish o'quv kurslarini
tashkil qilish tartibi va muddatlari
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Vakolatli organ	O'zining rasmiy veb-sahifasi, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda kelgusi yil uchun joylashtirish vositalari xodimlarining malakasini oshirish o'quv kurslarini tashkil qilish bo'yicha grant ajratilishi to'g'risida e'lon beradi.	2023-yildan boshlab har yili, 2024-yildan 1-noyabrdan 20-noyabrga qadar
2-bosqich	Talabgor	1. Ushbu Nizomda belgilangan shaklda arizani va unga ilova qilinadigan zarur ma'lumotlarni tayyorlaydi. 2. Ariza va unga ilova qilinadigan ma'lumotlarni vakolatli organga yozma (yoki) elektron shaklda taqdim qiladi.	2023-yildan boshlab har yili, 2024-yildan 1-noyabrdan 20-noyabrga qadar
3-bosqich	Vakolatli organ	Berilgan e'lon yakunlari bo'yicha talabgorlar tomonidan taqdim etilgan arizalarni ko'rib chiqadi.	har yili, 20-noyabrdan boshlab, 10 ish kunida
4-bosqich	Vakolatli organ	1. Grant ajratish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. 2. Qabul qilingan qaror yuzasidan ma'lumotni talabgorga yuboradi.	1 ish kunida
5-bosqich	Talabgor	Grant ajratish rad etilgan taqdirda, vakolatli organning qarorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda, arizani qayta topshiradi.	Talabgor hoxishiga ko'ra, qaror olgan kundan boshlab 5 ish kunida
6-bosqich	Vakolatli organ	1. Talabgor bilan grant ajratish bo'yicha shartnoma imzolaydi. 2. Shartnomaga muvofiq talabgorning bankdagi hisobraqamiga zarur mablag'larni o'tkazadi. 3. Ushbu Nizom va shartnoma talablariga muvofiq o'quv kurslari tashkil etilishi yuzasidan monitoring olib boradi.	Qaror qabul qilingan kundan boshlab, 5 ish kunida Har yili, shartnomada belgilangan muddatlarda